O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNVERSTETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

# UMUMIY YER BILIMI

# MA'RUZALAR MATNI

Tuzuvchi: A.Mamatov

Qarshi 2007 yil

# K I R I S H

XXI asrning asrning boshlarida geografiya fanlari deb bir-birlari bilan o’z urganish obyekti tadqiqoti metodlari bilan bog’liq bo’lgan bir qancha fonlar komleksi tizimi tushuniladi. Aslida qadimgi antik davr yunon va Rim tarixi davrida Eratosfen tomonidan birinchi bor qullanilgan Geografiya ilmiy atamasi yer tasviri mazmunida paydo bulgan buyuk geografik kashfiyotlar davridan keyin, ya‘ni 1492 yilda Amerika qit‘asining kashf etilishi yerning sharsimonligini isbot etgan 1518-1522 yillarda Dunyo aylana sayohatning amalga oshirilishi 1498 yilda Hindistonga boradigan dengiz yo’lining aniqlanishi 1605 yilda Avstraliyaning ochili va boshqa geografik voqealardan geografiya so’zining Fan sifatida mazmun va mohiyati o’zgarishga uchradi. Shuning uchun bo’lsa kerakki, 1950 yilda Niderlandiya olimi Berkxandr Varenius «Eng umumiy geografiya» asarda «Geografiya Yer-suv shari qobiqlarini yaxlit ravishda o’rganish kerak degan fikrni olg’a suradi. XX asrda esa akademik A.A. Grigorev geografik qobiq haqida ta‘limotni yaratib geografiya fanlarining o’rganish Geografik qobiq ekanligini ilmiy metodik jihatdan asoslab berdi. Garchi juda ko’p zabardast tibbiyotshunos olimlar geografiya fanining tatqiqot obyekti va predmeti haqida o’z fikrini bildirgan bo’lsalarda (bu fikrlar quyida batafsil keltiriladi). Ko’pchilik geograflar geografiya bir-biri bilan chuqur aloqa va o’zaro ta‘sirda bo’lgan ikki bo’limdan tashkil topgan bir fan tizimi deb ta‘kidlaydilar. Birinchisi-tabiiy geografiya fanlari bo’lib, tabiat qonunlari asosida rivojlanadigan jarayon va hodisalar mohiyatini tadqiq etadi. Ikkinchisi iqtisodiy geografiya fanlari jamiyat-aholi-ishlab chiqarish joylashuvi bilan ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlardan kelib chiquvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o’rganadi. Tabiiy geografiya fanlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy geografiya bir-biri bilan o’zaro ta‘sir va aloqada taraqqiy etmoqda, chunki tabiiy fanlar bilan ijtimoiy fanlar bir-biriga yaqindan

bog’lanishga rivojlanadi. Tabiiy geografiya fanlari tabiatni ya‘ni Yer sharining ayrim qismlarining tabiiy xususiyatlarini ulardan jamiyat maqsadlarida foydalanish uchun o’rganadi.

Geografiya so’zi paydo bo’lganda va bundan keyin ham tadqiqotchilar geografiya tushunchasini ishlatganda Yer manzarasini-Yer yuzasida nimalar borligini ularning bir-biriga nisbatan qanday joylashganligini tushunganlar. Bu jihat ham to’g’ri, chunki Yer platosidagi har qanday geografik ob‘ekt-tog’, dengiz, orol va boshkalar bir-biriga nisbatan qanday joylashgan, bu hududiy joylashuv shu ob‘ektning boshqalardan farq qiladigan, shu bilan birga boshqalarga o’xshash jihatlari namoyon bo’lishida o’z ifodasini topadi. Shuning uchun aytish mumkinki, geografiya so’zining mazmunidagi joylashuv ma‘nosi bugungi kunda ham fanni ifoda etuvchi geografiyaning mazmunida saqlanib qolgan. Garchand ayrim tadqiqotchilar o’ylaganidan geografik ob‘ektlarning joylashuvi ustivor ahamiyatga ega emas deb tasavvur etilsada ammo bugungi yer planetasidagi barcha geografik predmet va ob‘ektlarning joylashuvi ma‘lum, ular xaqidagi   ma‘lumotlar ayon. Shunga qaramay, shu predmetning yo’qolishi, hech bo’lmasa o’lchami yoki qiyofasining o’zgarishi boshqa geografik ob‘ektlar xususiyatlarida o’zgarishlar bo’lishiga olib keladi, ba‘zan esa umuman qaytarilmas, qayta tiklanmaslikka olib kelishini ko’pchilik tushunib yetmoqda.

Geografiya Yer yuzasining tabiati va xo’jaligini o’rganadigan fanlar kompleksiga kiradi va planetamiz tabiiy komponentlarining bir-biriga bog’liq va aloqadorlik qonuniyatlarini, hamda kishilarning xo’jalik faoliyatida tabiiy resurlardan oqilona foydalanish yo’llarini o’rganish bilan shug’ullandi. Bundan keng ko’lamli masalalar bita fan uchun ko’plik qiladi, shuning uchun XX asr ikkinchi yarmidan boshlab geografiya fanlar tizimi-sistemasi deyishga kelishilgan.

## *1 - mavzu: UMUMIY YER BILIMI PREDMETI - UMUMIY YER BILIMI GEOGRAFIK QOBIQNI O'RGANADIGAN FAN EKANLIGI*

**REJA:**

1. Geografiya fani predmeti. O'rganish obyekti, boshqa geografiya fanlari bilan aloqasi.
2. Geografik bilimlarning o'ziga xosligi, hozirgi zamon geografiya fanlari.
3. Geografik qobiq va uning xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar-Geografiya, litosfera, atmosfera, gidrosfera, geografik qobiq, geosistema-geotizim, geografik muhit, atrof muhit, geosfera, landshaft qobig'i, BMT-bezarar miqdor ko'rsatgichi.

Geografif – yer yuzasining tabiati va xo'jaligini, ularning taylashiv hususiyatlarini urgatadigan fanlar kompleksidir. Qadimgi yunonlar – bular hozirgi o'rta yer dengizi buylarida yashaydigan, insoniyat tarixida fan va madaniyatni yuksak darajada taraqqiy ettirish yunon va Rim xalqlari, ular orsida yetishib chiqqan olimlar – yer yuzasining manzarasi-er yuzasida qanday predmet va ob'ektlar borligini birinchi marta geografiya so'zi bilan ifodalanganlar. Geografiya terminini miloddan oldingi 276-194 yillarda o'rta yer dengizi janubiy soxildagi Kiruna shahrida tug'ilib o'sgan (bu shahar hozirgi Liviya davlati hududida bo'lgan) va Aleksandrif kutubxonasiga boshchilik qilib, fanlarda juda katta meros qoldirgan Eratosfen tomonidan iste'molga kiritilgan. Uning «Geografik yozishmalar» nomi asarida birinchi bor, yer yuzasidagi geografik predmet va ob'ektlarning «Geografiya» so'zi bilan ifodalangan. Darhaqiqat 20 asr boshlarigacha geografiya fanlarida tabiiy hodisalar, aholining xujalik faoliyati bilan bag'liq masalalar ta'riflangan. Geografiyani bunday tushunish- tasviriy geografiya, kashfiyotlar geografiyasidan boshqa narsa emas. Aslida bugungi geografiya so'zi bilan yuritiladigan fanda-bir- biriga nisbatan

joylashgan ob‘ektlar va hodisalarning urniga bog’liq ravishda o’ziga xos xususiyatlarini namoyon eti shva ob‘ektning biror jixati unda qanday uzgarishlar sodir bo’lishini bashorat etish masalasiga alohida urg’u beriladi. O’rta osiyo olimlari, butun arab sharqi allomalari bilan birgalikda 9-10 asrlarda boshlab, geografiya so’zi ma‘nosida «surati arz» «etti iqlim» «Rub‘i maskun» so’zlari qo’llanilgan 19 asrda 20 asr boshlarida, oxirida ba‘zan hozir ham «Jug’rofiya» so’zi ishlatilgan. O’zbek tilida ba‘zan qullanilgan «Jug’rofiya» so’zi Geografiyaning asl mohiyatini ochib Beraolmaydi, muayyan chalkashliklar vujudga keltiradi deb o’ylaymiz 1989 yilda, ayniqsa Uzbekiston mustaqilligi davrida o’zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan bu eng qadimiy geografiya so’zi o’z aslidan ishlatilib kelmoqda fanlarninigtarmoqlari bo’linib rivojlanish davrida «Geografiya» fani o’rniga «Geografiya fanlari tizimi sistemasi» iborasini qo’llashni olimlar ma‘qul topganlar. Chunki tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarni tadqiq etadigan kupgina fan larning yaxlit tizimidan iborat bo’lgan geografiya ilmlari bir-biri bilan ko’p jihatlardan, birinchi navbatda hududiymik tamoyili bilan bog’langan bir qancha mustaqil fanlar tizimidan iboratdir. O’zbekiston Respublikasi «Ta‘lim tug’risidagi qonun» ning davlat ta‘limi standartlari DTS da» Geografiya insoniyat yashovchi sayyora ya‘ni yer haqida to’liq tasovvir hosil qilish uchunma‘lumot berishga qaratilgan yagona o’quv fanidir. Geografiya ta‘limi yer kurrasiga ro’y beruchi tabiiy va satsial-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o’rgatadi. Yer haqidagi ilmiy dunyoqarashlarni shakillantiradi satsial-iqtisodiy bilimlarni tarkib toptiradi, Dunyo davlatlari va turli regionlardagi jamiyat va tabiatning o’zaro bog’liqligi, geografik ab‘ekt jarayo va hodisalar haqidagi bilim va tushunchalar bilan qurollantiradi. Bu esa yer kurrasining tabiiy manzarasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi aholi turmush darajasini ko’tarish, atrof muhit xolatini yaxshilash vositalari va usullari haqida mantiqiy fikirlashga o’rgatadi. Binobarin geografiya ta‘limi o’quvchilarda umum insoniy madaniyatning tarkibiy qismati bo’lgan geografik madaniyatni tarbiyalaydi deb aniq ta‘kidlab o’tilgan.

Maktab geografiyasi-planetamizdagi geografik ob‘ektlarning joylashuvi xaqida bilim beruvchi yetakchi fan, shuning uchun «geografiya» qadimgi yunon tilida «ge»-Yer tasvirlash ma‘nosida bo’lib, Yer tasviri deganda keng qamrovli, teran mazmunli, fikrlashga chorlaydigan iborani bildiradi. Ko’pchilik odamlar geografiya fanini juda soda tasavvur etib, tog’, tekislik, shahar, dengiz, orol va boshqa ob‘ektlarning joylashgan o’rnini o’rganishdan iborat deb bilishadi. Azaldan yoshlar bu fanni kashfiyotlar, sayyoramizdagi geografik ob‘ektlarni, ularning bir-biriga nisbatan qanday joylashganligini aniq tasavvur etmagan fuqaroni ma‘rifatli, ziyoli, madaniyatli kishi deyish qiyin. Zero, maktab geografiyasi Yer planetasidagi okena, materik, dengiz, orol, tog’, tekislik, muzlik va boshqa tabiiy ob‘ektlarning qaerda va qanday o’ziga xos xususiyatga ega ravishda joylashganligini o’rgatish qaratilgan. Qanday davlat, uning iqtisodiy-siyosiy holati, poytaxti, yirik va mashhur shahari, aholi, urf-odatlari, mashg’ulotlarini ham geografiya fani o’rgatadi. O’tmish olimlaridan biri «Geografiyadan ko’ra qiziqarliroq fanni topish amrimahol» deganda to’la xaqli edi. Bu fikr hozirgi kosmos, kompyuter asrlari bo’lgan XXI asrda o’z dolzarbligini yo’qotgani yo’q. Chunki televizor dasturlaridan o’rin olgan ma‘rifiy ko’rsatuvlar, radiodagi qiziqarli eshittirishlar, gazitalarning sungi sahifalardagi boshqotirma-yu, so’nggi ustunlar,gazitxonlarni fikrlashga qaratilgan savol va topshiriqlarinng aksariyati geografiyani bilishni talab etadi bular o’z uyimiz, sayyoramizni aniq tasavvur etishni talab qiladi. Yuzaki qaraganda, geografik ob‘ektlar o’z- o’zidan, tasodif tufayli o’z o’rnida joylashgan, ular yer yuzida narsa va ob‘ektlarning tartibsiz to’plami yig’indisidan iboratday tuyuladi. Aslida esa, ularning joylashivi planitamiz tabiiy taraqqiyotning qonuniy natijasi, ular bir- biriga iqlimshunoslikka, gidrologiyaga va biogeografiyaga, iqtisodiy geografiya fanlari ham uch guruhga-umumiy ijtimoiy, iqtisodiy geografiya, regional iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, xo’jalik tarmoqlari geografiyasiga-sanoat geografiyasi, transport geografiyasi, aholi geografyaisi va boshqalarga bo’linadi. Shu bilan birga

geografiya tarixi, geografik o'lkashunoslik, xarbiy geografiya, rekratsion geografiya, meditsina geografiyasi, turzim geografiyasi, o'qitish metodikasi, kartografiya kabi fanlar ham geografiya fanlari tizimiga kiradi. Geografiyalarning maqsadi-Yer planetamiz tabiati, xo'jaligini bir butun idrok etishdan iborat bulishi lozim-Yer yuzasida qanday geografik ob'ektlar mavjud. Ularning xususiyatlari o'zgarishini tasavvur etishdan iborat. Geografiya fanlarining vazifasi Yer planetasi geografik qobig'ining taraqqiyot qonunlari o'rgatishdan iborat bo'lib, tabiat va jamiyat o'zaro munosabatlarini o'rgatish, uning o'zgarish qonuniyatlarini belgilab berishdan iborat bo'lmog'i kerak. Bu xol-hozirgi zamon geografiya fanlari amaliy konstruktiv geografiyaga aylanganini bildiradi.

Umumiy tabiiy geografiya ma'lum ma'noda «Umumiy Yer bilimi» deb yuritiladi. Umumiy Yer bilimi Yer sharining ustki, murakkab tuzilishga ega bo'lgan qatlami bo'lmish-geografik qobiq tabiatini, tuzilishi, rivojlanish qonuniyatlarini va xududiy bo'linishni o'rgatadi. Geografik qobiq. Yer yuzasida atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosferaning o'zaro aloqasi, bir-biriga ta'siri natijasida uzoq davrlar maboynida ro'y bergan evolyuttsion jarayon oqibatida vujudga kelgan murakkab doimo rivojlanishda bo'lgan bir butun (yaxlit) moddiy tizimdir. Juda murakkab doimo rivojlanishdagi dinamik tuzilma bo'lgan geografik qobiqning strukturasi va tabaqaviy (bir-biriga bo'ysunuvi) tuzilishi hamda xududiy bo'linishini o'rganish umumiy Yer bilimining vazifasidir. Shu fikrdan kelib chiqib umiy bilimini Yerning eng asosiy geografik qonunlarini o'rganadigan fan deb qarash kerak. Shuning uchun ham bo'lsa kerakki, bu fanning asoschilaridan biri Akademik S.V. Kalesnik o'zining bu fanni umumlashtirgan kitobini «Yerning umumiy qonuniyatlari» deb atagan. Umumiy yer bilimi fanini to'g'ridan-to'g'ri «tabiy geografiya faniga kirish» deb qarash yaramaydi, chunki geografiya fanlariga oid barcha ma'lumotlardan xabardor etuvchi «geografiyaga kirish» kursidan farqli ravish Yer geografik qobig'ining taraqqiyot qonuniyatlarini o'rgatadi. Xaqiqatdan ham geografik qobiq xaqidagi

ta‘limoti bo’lgay umumiy yer bilimini geografiya fanlariga tegishli juda ko’p fanlarni o’rgatish uchun kuzgu-prizma sifatida talqin etish to’g’ri bo’ladiki, Yer shariga doir komponentlarning shakllanish va o’zgarish qonuniyatlari xaqidagi barcha bilimlarni emas, balki geografik qobiqni muayyan qonuniyatlar asosida rivojlangan va o’zgarayotgan doimo xarakatdagi dinamik tuzilma sifatida o’rgatadi. Harqalay har bir komponent va Yer xar bir qobig’ini o’ziga xos obyektiv rivojlanish qonuniyatlari borki, ularni tarmoq geografiya fanlari o’rganadi. Umumiy Yer bilimi bu komponent va qobiqdagi bir butun yaxlit rivojlanishdagi qonuniyat, jarayon va hodisalar haqida eng umumiy bilimlarni beradi.

Geografik mutaxassislar «Umumiy Yer bilimi» yerning kosmik jism sifatida fazodagi o’rniga bog’liq aynan yer planetasiga oid qonuniyatlar xaqida umumiy bilim va ma‘lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir. Aniqroq aytganda Yerning quyosh tizimdagi o’rni, yerning shakli, kattaligi, sutkalik va yillik harakati yer sferalarining tuzilishi bilan bog’liq qonuniyatlarni va ularning oqibati bo’lgan yer shari tabiatning aynan. Yerning o’zigagina xos umumiy qonuniyatlarini o’rgatadi. Geograf bakalavr yo’nalishidagi mutaxassis yerning fazodagi o’rni, harakatlari, yerning shakli, qiyofasi va yer qobiqlarining bir butunligi bilan qonuniyatlari, bu qonuniyatlar yer sferalari va komponentlari va nima sababdan aynan shunday ekanligini umumiy Yer bilimi kursidan anglab olishi zarur. Har bir sfera komponent bir-biriga bog’liq. O’zaro ta‘sir va bir-birini taqozo etib turishini chuqur ilmiy tafakkur qilishi kerak. Bakalavr yo’nalishi bo’yicha geograf mutaxassis geograf tadqiqotchi geograf tabiatni kuzatuvchi, geograf ta‘lim beruvchi, xullas yerning xususiyatini tadqiq va ta‘lim beruvchi ziyoli bo’lib yetishadi. Bu sohada umumiy yer bilimi kursi birinchi oliy ta‘lim olishda o’qitila boshlanar ekan keyingi o’rganiladigan geografiya fanlarining o’rganish ob‘ektlari va yo’nalishlari bir-biriga bog’lanib ketganini idrok etish zarur. Demak yer haqidagi ma‘lumotlarni, qonuniyatlarni, yer sharining hududiy vatatsaviy tuzilishining oqibati deb idrok etish lozim bog’liq

holda, bir-biriga taqozo etgan holda o’rnashgan. Barcha ob‘ektlar o’zining qonuniy o’rnida. Ularning biri o’z o’rnidan yo’qotilsa boshqalarida ham chuqur sifatiy o’zgarishlar ro’y beradi. Bunday yo’qotishni biz o’rta osiyoliklar o’z yelkamizda bugun his etib turibmiz, yo’qotishning jabrini tortmoqdamiz. Oralning qurib qolishi faqat biz o’rta osiyoliklarning emas, butun sayyoramiz tabiati o’zgarishda-yomon tomonga o’zgarishida-namoyon bo’lmoqda. Ob‘ektlarning joylashivi, ularning xususiyati haqidagi ma‘lumotlarni tahlil etish bugungi ilmiy geografiyaning mushoxada predmetidir.Ma‘lum bo’ladiki geografiya o’zining Yangi yerlarni kashf etish bilan bog’liq bo’lgan jozibadorligini Yangi sharoitda, ob‘ektlar joylashuvining o’rnini ilmiy tahlil qilish jozibasida saqlab qolmoqda. Xa geografiya fani bilan shug’ullanish Jyul Vermaning asarlari va tasavvurlari kabi maftunkorlikni bugun ham saqlab qolmoqda. Chindan ham ekspedittsiyalarda faqat oddiy qatnashchi emas ishning mohiyatini to’la anglab yetgan ilmiy hodim bo’lish talab etiladiki, buning uchun murakkab asbob uskunlar bilan ishlash kompyuter texnikasining tilini tushunish, kosmik fotosuratlarni tahlil eta bilish, yangidan-yangi xaritalar tuzish va boshqa shunga o’xshash ancha murakkab ishlarning o’ziga xos mashaqqatlari geografiya faning zimmasidadir.

Ma‘lumot va dalillarning tahlil etish, ular o’rtasidagi bog’lanish va qonuniyatlarning izlab topish ilmiy bilim hisoblanadi. Zero nimaning qaerda joylashganligini qayd etish va bilish-bu oddiy, kundalik bilimdir. Chunki har qanday bilim oddiy, kundalik bilimga va ilmiy bilimga bo’linadi. Hayot xakida, atrofimizdagi narsa va buyumlar xaqidagi bilimimiz oddiy bimlardir. Oddiy bilim odamlarning yashashi davomida hosil qilinadi, ko’payib chuqurlashib boraveradi. Demak, oddiy bilim har qanday shaxsining hayotiy tajribasiga bog’liq bo’ladi. Ilmiy bilim –tabiat, jamiyat va tafakkur xaqida yangidan-yangi tasavvurlarga-bilimga ega bo’lishga qaratilgan inson faoliyatining ijodiy tadqiqot sohasidir. Ilmiy hodim ya‘ni olim kishi tabiat va jamiyatning o’rganilmagan qirralarini aniqlash uchun maxsus metod va nazariyalar orqali ish

ko'radi. Olim o'z tadqiqotlarida turli asboblar, tajriba uskunlari, hisoblash texnikalaridan foydalanadi. Ilmiy bilim ilmiy dargohlarda, maxsus jihozlangan ilmiy markazlarda amaliga oshiriladi. Jamiyat bag'rida yarishilgan ilmiy bilimlar insonlar hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyat Yangi qonunlarni egallash orqali yuksak yutuqlarni qo'lga kiritadi.

Ilm-bu yaxlit bir tizilma. Kvant nazariyasining asoschisi M. Plant 1966 yilda «ilm ichki yaxlit birliklarda boshqa narsa emas uni alohida avvalo sohalarga bo'lib, o'rganish narsalarning tabiatidan kelib chiqadi, so'ngra insoning bilish qobiliyati cheklanganligi bilan ham bog'liq. Aslida fizika va kimyodan biologiya va antropologiya orqali ijtimoiy fanlarga uzluksiz zanjir mavjuddirki, bu zanjir hayolotdan boshqa biror joyda uzulmagan», deb yozgan edi. Fanshunoslik fanlarni tasniflash, tuzilishi va tartibga solish masalalari bilan shug'ullanadiki, bu ilmiy ish olimlarning muhim faoliyati. Bir butun ilmiy bilimlar silsilasida geografiya fanlari ham muhim o'rin tutadi. Bizga maktab geografiyasida ma'lumki, bu fan yer usti tuzilshi, mamlakatlar, xalqlar xakida. Xarita-geografiyannig alifbosi (alfa va omega), xarita-Yer planetasining materikalar, okeanlar, tekisliklar, daryo va ko'llar, shaharlari, borinki barchasining-timsolini tasavvur etishga yordam beradi. Geograf xaritani bilish kerak, butun planetaning tabiati, xo'jaligi, aholichi xaqida ham, unnig ayrim regionlari xaqida ham bilimga ega bo'lishi kerak. Geografiyaning fan sifatidagi xususiyatlari shular bilangina cheklanib qolmaydi. Chunki yer ust iva undagi obekt va jarayonlarni geografiyadan tashqari geologiya, biologiya, demografiya, iqtisodiyot fanlari ham o'rganadi. O'z-o'zidan tushunarliki, inson yerda yashar ekan, u o'z uyini o'rganishi darkor. Lekin geografiyaning yer sayyorasiga qarashi, biologik yoki geologdan farq qiladi-biolog o'simlik va hayvonlarni o'rganadi, geolog-mineral va tog' jinslari o'rganadi. Geografiya-er usti strukturasini tarkibiy tuzilmasini tashkil etgan murakkab hududiy tuzilmalar (sistemalar) ni o'rganadi. Bu sistemalar tabiiy (tabiiy hududiy komplekslar)

ham, ijtimoiy (hududiy ishlab chiqarish komplekslari) ham, tabiiy-ijtimoiy (tabiiy xo'jalik rayonlari) ham bo'lishi mumkin. Mazkur komplekslar turlicha kattalikdagi maydonni egallashi mumkinki, butun geografik qobiqdan tortib ayrim aholi qo'rg'oni ham bo'la oladi. Demak, geografik bo'limning o'zigi xosligi har birj uda murakkab va ko'pdan-ko'p tuzilmalardan tashkil topgan Yer usti strukturasini tadqiq etishda ifodalanadi. Bu tuzilma qanday shakllangan, hozir qanday holatda, kelajakda bu tuzilma qanday o'zgarishga uchraydi. Barcha geosistemalar bir-biri bilan o'zaro ta'sirda-okean bilan quruqlik, o'rmon bilan iqlim, tabiat bilan xo'jalik, atrof muhit bilan shahar va hakazo ta'sirida mavjuddir.

Tabiatning alohida komponentlari orasidagi o'zaro ta'sirini bilish ham geografiya fanining vazifasidir.

Geografik bilimning mohiyati-hududiy qonuniyatlarni tahlil eta bilish, alohida komponentlar va geosistemalar o'rtasidagi o'zaro aloqani tarixiy metod asosida aniqlash orqali hozirgi geografik manzarasini (kartinasi) ilmiy izohlab berishdan iboratdir. Geograf xilma-xil materiallardan foylanib Yerning tabiati va xo'jaligida bo'ladigan o'zgarishlarni ham, ayrim regionlarda bo'ladigan o'zgarishlarni ham oldindan aytib berishi ya'ni bashoratlashi zarur.

Geografik bilimlar toboro kengayib va murakkablashib borayotgan bizning davrimizda havo va suvning ifloslanishi, cho'llarning kengayib borishiga, tuproq sho'rlanishi, chang-to'zon bo'ronlari, zilzila, toshqin, tropik tsiklon va boshqa talofatli tabiiy hodisalarning ro'y berish masalasa, ularning sababini va oldin aytib berish masalalarini hal etish uchun ham geografik bilimga ega bo'lish zarur. Demak, bugungi geografiya fani ko'pchilik tasavvur etganidek, nimaning qaerda joylashganini emas, balki insoniyatning juda murakkab ilmiy va amaliy masalalarini hal etishda ishtirok etmog'i zarur. Hozirgi davrda geografiya juda ko'plab tabiiy va ijtimoiy jarayon va hodisalarning vujudga kelish sabablarini aniqlab bera oladiki, Yer deb atalmish

sayyoramizning kelgusi taqdiriga tegishli masalalarni hal etishda geograflar, shubhasiz, faol ishtirok etadi.

Geografiya tabiiy va ijtimoiy ilmiy yo’nalishda vujudga kelganligidan uning obyekti va predmeti xilma-xil geosistema va geokomponentlar hisoblanadi. Hamma zamonlarda ham shunday bo’lgan emas, tarixiy davrlarda geografiyaning obyekti va predmetini talqin etishga yondashuv o’zgarib turgan. Ammo hamma zamonlarda ham ko’pchilik olimlar tomonidan geografiya Yer ustini o’rganadi deb etirof etishganligi aniq. Chunonchi, K. Ritter, geografiyaning o’rganish obyekti butun Yer shari deb hisoblagan. A. Gettner-geografiya mamlakatlarni, predmet va hodisalarning hududiy joylashishini o’rganishi kerak deb o’qtiirib o’tgan. F. Ritgofen-geografiya fan sifatida usti o’rganadi deb ta‘kidlab o’tgan. E. Marttonn-Yer ustida fizik, biologik va inson faoliyati bilan bog’liq hodisalarni, bu hodisalarning sababiy bog’lanishlarini o’rganadi deb ko’rsatgan bo’lsa, O. Leshen-Yerning tabiatini o’rganadi deb yozadi.

Peterburg universiteti geografiya kafedrasi mudiri P.I.Brounov-Yer tashqi qobig’ining hozirgi tabiiy tuzilmasini o’rganadi deb hisoblaydi. 1910 yilda olg’a surilgan bu taklif ko’pchilik geograf olimlarga asosan ma‘qul bo’lgan, lekin «tashqi qobiq» uncha aniq emas, biroz umumiyroq tushuncha bo’lganligidan, bu iborani muayyanlashtirish, mazmunini chuqurlashtirishga olimlar harakat qilishgan.

Geografiya fanining obyekti sifatida geografik qobiq landshaft qobig’i, geosfera, biogenosfera, epigeosfera va boshqa Ilmiy atamalar taklif etildi. Lekin bu tushunchalardan geografik qobiq iborasi ko’pchilik tadqiqotchilar e‘tirofiga sazovor bo’ldi. XX asrning zabardast olimi A.A.Grigorev «Geografik qobiqning strukturasini aniqlash-geografiya fanining asosiy vazifasi» deb ta‘rif berdi.
Akademik S.V.Kalesnik bu ta‘rifni biroz kengaytirib, geografiya fanining o’rganish obyektini shunday aniqlaydi. Geografik qobiq strukturasining shakllanish, hududiy tarqalish va rivojlanish qonuniyatlarini o’rganadi deb

ko’rsatadi. Shunday qilib, geografik qobiq o’zaro ta‘sirda bo’lgan Yerning litosfera, atmosfera, gidrosfera va biosfera kabi yetakchi qobiqlaridan tashkil topgan o’ziga xos juda murakkab tashkil tuzilmadir. Bu tashkil tuzilmani o’rganish geografiya fanining obyekti hisoblanadi.

## *2 – mavzu. GEOGRAFIYA FANI PREDMETI, ILMIY GEOGRAFIYA BILIMLARNING O'ZIGA XOSLIGI*

**REJA**

1. Geografiya-maktab geografiyasidan hozirgi Ilmiy geografiyaga.
2. Fan, fanshunoslik-Geografiya ilmiy bilimlar tizimi.
3. Geografik tadqiqotlarning obyekti va predmeti.
4. Geografik qobiq va uning strukturasi.
5. Geografik qobiqning boshqa Yer qobiqlaridan farqi.
6. Geografik bilimlarning o'ziga xosligi.

Tayanch tushuncha va iboralar: Geografiya, geografik bilim, geografik tasavvur, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera, geografik qobiq strukturasi, uzluksiz-kontinuallik, uzuklik-diskretlik, geosistema geotizim, landshaft, landshaft qobig'i, geografik muhit, geosfera, xionosfera. Biotsenoz, atrof muhit, geografik muhit bmk (bezarar miqdor ko'rsatkichi PDK-predelno dospustimaya kontsentratsiya). BCHM (bezarar miqdor chiqarilishi-PDV predelno dopustime vbrost), bmyu (bezarar miqdor yuklamasi-PDN-predelno dospustimaya nagruzka) u tabiiy hududiy kompleks, hududiy ishlab chiqarish kompleksi, iqtisodiy rayon, hududiy ob'ekt.

Maktab geografiyasi-planetamizdagi geografik ob'ektlarning joylashuvi haqida bilim beruvchi fanlardir. Shuning uchun «Geografiya»-qadimgi yunon tilida «Yer tasviri» iborasining mazmuniga to'g'ri keladi. Ko'pchilik fuqarolar geografiya fanini juda soda tasavvur etib, tog', tekislik, shahar, dengiz, orol va boshqa ob'ektlarning joylashgan o'rnini bilishdan iborat deb bilishadi. Azaldan yoshlar bu fanni kashfiyotlar fani deb tasavvur etishadi. Bu ham to'g'ri, sayyoramizdagi geografik ob'ektlarning bir-biriga nisbatan qanday joylashganligini aniq tasavvur etmagan odamni ma'rifatli, ziyoli deb bo'lmaydi.

Zero, maktab geografiyasi Planetamiz Okean, materik, dengiz, orol, tog', tekislik, muzlik va boshqalarining qaerda joylashganligi haqida ma'lumot berishga qaratilgan. O'tmish olimlaridan biri «Geografiyadan ko'ra qiziqarliroq fanni topish amrimahol» deganida to'la haqdi edi, bu fikr hozirgi kosmos, kompyuter asrlarida o'z dolzarbligini yo'qotgani gazetalarning so'nggi sahifalaridagi boshqotirma-yu, so'nggi ustunlar, gazetxonlarni fikrlashga qaratilgan savol va topishmoqlarning aksariyati geografiyani bilishni talab qiladi.

Bular o'z uyimiz bo'lgan sayyoramizni aniq tasavvur etishni talab qiladi. Yuzaki qaraganda, geografik ob'ektlar o'z-o'zidan, tasodif tufayli o'z o'rnida joylashgan, ular yer yuzida narsa va ob'ektlarning tartibsiz to'plami-yig'indisidagi iboradagidek tuyuladi. Aslida esa ularning joylashuvi planetamiz tabiiy qonuniy natijasi, ular bir-biriga bog'liq holda, bir-birini taqozo etgan holda o'rnashgan. Barcha ob'ektlar o'zining qonuniy o'rnida. Ulardan biri o'z o'rnidan yo'qotilsa boshqalarida ham chuqur sifatiy o'zgarishlar ro'y beradi. Bu narsa, bir O'rta Osiyoliklar o'z yelkamizda butun his etib turibmiz, yo'qotishning jabrini tortmoqdamiz. Orolning yo'qolishi faqat biz O'rta Osiyoliklarning emas, butun sayyoramiz tabiati o'zgarishida-yomon tomonga o'zgarishida namoyon bo'lmoqda. Ob'ektlarning joylashuvi, ularning xususiyati haqidagi ma'lumotlarni tahlil etish bugungi ilmiy geografiya mushoxada predmetidir. Ma'lum bo'ladiki, geografiya o'zining Yangi yerlarni kashf etish bilan bog'liq bo'lgan jizibadorligini Yangi sharoitda ob'ektlar joylashuvining o'rnini ilmiy tahlil qilish jozibasida saqlab qolmoqda. Ha, geografiya fani bilan shug'ullanish Jyulverning asarlari qahramonlari kabi qiziqarligi va maftunkorligini bugun ham saqlab qolmoqda. Chindan ham ekspeditsiyalarda faqat oddiy qatnashchi emas, ishning mohiyatini Tula anglab yetgan ilmiy hodim bo'lish talab etiladiki, buning uchun murakkab asbob-uskunalar bilan ishlompyuter texnikasining tilini tushunish, kosmik fotosuratlarni tahlil eta bilish, yangidan-yangi xaritalar tuzi shva boshqa shunga o'xshash ancha

murakkab ishlarni bajarishning o’ziga xos mashaqqatlari geografiyaning, bugungi geografiya fanining zimmasidadir.

Ma‘lumot va dalillarni tahlil etish, ular o’rtasidagi bog’lanish va qonuniyatlarni izlab topish ilmiy bilim hisoblanadi. Zero, nimaning qaerda joylashganligini qayd eti shva bilish-bu oddiy, kundalik bilim hisoblanadi. Chunki har qanday bilim oddiy, kundalik bilimga va ilmiy bilimga bo’linadi. Hayot haqida, atrofimizdagi narsa va buyumlar haqidagi bilimimiz oddiy bilimlardir. Oddiy bilim odamlarning yashashi davomida hosil qilinadi, ko’payib chuqurlashib boraveradi. Demak, oddiy bilim har qanday shaxsning hayotiy tajribasiga bog’liq bo’ladi.

## *3 - mavzu. GEOGRAFIYA FANLARINING TUZILMASI VA TASNIFI*

**REJA**

1. Ilmiy bilim soxalarining tarmoklarga bulinishi (differentsiatsiyasi) va integratsiyasi—fanlar tarakkiyotining talabi.
2. Fanlarni tasniflash masalalari tarixidan.
3. Geografiya fanlarining bulinmalari tabiiy-ilmiy fanlari bulinmasi.
4. Ijtimoiy- Iktisodiy fanlari bulinmasi.
5. Tabiat va jamiyat geografiya fanlari

«Oralik» geografiya fanlari tayanch tushuncha va geograf olimlar izoxati xar kanday ilmiy bilimlarning rivojlanishda u ilm soxalarining tarmoklarga bulinish va ba‘zan bir-biri bilan yulanishlarning kushilib ketish jarayoni bulishi tabiiy xoldir. Bu taklit fanlar differentsiatsiyasiga tarmoklarga bulinishiga va integratsiyasiga kushilib ketishiga—jamiyatning extiyoji, ilmiy—tekshirish ishlarida yangi metodlarning revojlanishi, tabiat va jamiyat tugrisidagi fanlarda yangi yunalishlarning vujudga kelishi va boshka omillar ta‘sir kursatadi. Differentsiya deganda yaxlit bir soxaning kupmuammoli kisimlarga bulinishi tushiniladi. Fan soxasida olganda- bir ilmiy bilimning kator tarmok va aloxida-aloxida yunalishlarga differentsatsida Muayyan fanga iktisoslashayotgan ilmiy xajim shu fandagi juda kup ilimlar jamgarmasini egallab olishi kiyinki, u shu fanning bir yunalishinigina chukur ajralib tadkikot ishlari olib borgan takdirda chukur bilim mutaxassis bulib yetishadi. Kupchilik fanlarda tarmoklarga bulinish XIX asr oxirida XXasr boshlaridan buyon davom etmokda. Differentsatsiyalanish jarayonida fundamental—chukur ilm bilan shugullanuvchi fanlarga va amaliy fanlarga bulinish yuz berdi. Matematika, Fizika, Kimyo, Mexanika, Biologiya, Filologiya kabi ilimlar asosini tatkik yetuvchi fanlarni fundamental fanlar deyish mumkin. Amaliy fanlarga barcha tnxnika fanlari kishlok xujalik fanlari kiradi. Tabiat, jamiyat va Mantikning

konuniyatlarini urganish- fundamnntal fanlarning vazifasiga kiradi. Kasid etilgan konuniyatlarni amaliyotga tadbits etish va amaliyot vazifalarni yechishda umumiy nvzvriyalardan foydalanish amaliyot fanlarning vazifasi xisoblanadi. Uz-uzidan tushunarliki, fanlarni bunday fundamental va amaliyot katorlariga bulishda muayan shartlilik mavjud. Ilmiy fiziologiya bilan meditsinaya fanlar biri fundamental, ikkinchisi amaliyot fanlariga bulinsada ularning xar ikkisi nazariyasiz mavjud bulishi kiyin. Geografiyaf fanlarida umumiy geografik konuniyatlarni urganuvchi nazariy (fundamental) fanlar bilan bu konuniyatlardan amaliy maksadlarda foydalanuvchi amaliy vazifalarni bajaruvchi chunonchi melioratsya geografiyasi, rekreatsiya geografiyasi kabi termok fanlar foliyat kursatma shunos Olimlarning ta‘kidlashicha, amaliyot fanlarining xissasiga barcha olib borilayotgan tadkikotlarning 80-90% tugri keladi. Chunki amaliyot nazariyaning lakmda kogozi ya‘ni mezoni ekanligini xamma e‘tirof etadi. Geografiya fanlarida tarmoklanish XIX asr oxirida boshlanib, XX asrning birinchi yarmida nixoyatda jadallashib ketdi. Yaxlit, bir butun geografiya fani tabiiy geografiya fanlariga va iktisodiy geografiya fanlari va ularning tarmoklariga ajraldi. XX asrning ikkinchiyarmida boshlab fanlarda tarmoklanish bilan birga bir-biriga kushilish jarayoni xam sodir bulmokda. Integratsiya bir-bir bilan yakin fanlarining birlashishi bulib, buni geografiya tadbik etsak, tabiat tugrisida ilimlar bilan jamiyat tugrisidagi ilimlarning birlashishida nomoyon buladi. Xozirgi davrda geografiya fanlari tuzilmasi uchta bulinmadan kichik tuzilmadan tarkib topgan. Bular-tabiiy ilmiy geografiyafanlari bulinmasi, ijtimoiy iktisodiy geografiya fanlari bulinmasi va tabiat-jamiyat munosabatlarini tadkik etuvchi geografiya fanlari. Shu bilan birga «Oralik- Kuprik» geografiya fanlari bulinmasi xam mavjud.

1. Tabiiy ilmiy geografiya fanlari bulinmasi- tabiiy geografiyaning nazariy va amaliy soxalarini urganuvchi fanlar sifatida nomoyon bulgan. Yukorida takidlangandek, tabiiy geografiyaning asosiy predmeti geografik kobik bulib, G.K ni bir tomondan yaxlit tarzda urganilsa, ikkinchi tomondan tabiiy

komponentlar va tabiiy komplekslarni aloxida – aloxida urganish mumkin.

Umumiy tabiiy geografiya g.k ni bir butun yaxlit ravshida shakillanish konuniyatlarini urganadi. Zonalik, azonallik, ritminlik kabi umumiy konuniyatlarni urganadi. GK ning tarakkiyoti natijasida uning materik va okeanlarga yoritish tabiiy komplekslarga ajralish xususiyatlarini urganadi. Umumiy tabiiy getrofiya boshka tabiiy fanlar xam foydalansa buladigan g.kning umumiy konuniyatlarini aniklaydigan nazariy fan xisoblanadi. Umumiy tabiiy geografiya uz xulosalarini kuplab daliliy materiallar asosida chikaradi. G.K doir ma‘lumotlar umumiy planetar xarakterga egadir. Umumiy tabiiy getrafiya bilan umumiy Yer bilimi fanlarini bir fan desa buladi. Agar umumiy Yer bilimi Yer xakidagi ma‘lumotlarini kaid etilgani kolmay, nazariy va global muammolarini tadkik etgan takdirda- umumiy tabiiy geografiya bilan umumiy yer bilimini bir fan deb xisoblash mumkin.

LANDSHAFTSHUNOSLIK- landshaftlar va landshaft kobigi xakidagi fandir. Landshaftlaryoki individial komplekslarni urganuvchi landshaftshunoslik fani landshaftlarning strukturasini ya‘ni relyef, iklim, suv va boshka komponentlarning uzaro ta‘sir xarakterini tadkik etadi. Tabiiy kompleksni tashkil etuvchi komponentlarni urganish natijasida bu komplekslarning paydo bulishi, rivojlanishi. Tarkalishi, xozirgi xolati, shuningdek, antiropogin ta‘sirlari bu komplekslarning bardoshligi darajasini aniklab beradi.

Paleogeografiya- Yer geografik kobigining, bu kobikdagi landshaftlarini revojlanish konuniyatlarini urganadi. Paleografiyaning asosiy maksadi- utmish geologik davirlardagi tabiiy sharoitning dinamikasini urganishdir. Inson paydo bulganida kadar shakillangan landshaftlarni aniklab, utmishda bular sharoitda sharoitda vujudga kelganlegin urganadi. Paleogeografiya tarixiy metodlardan foydalanib, Yer tabiatining xozirgi xolati kanday shakillanganligi xakida anik tasavvur beradi. Umumiy tabiiy geografiya va landshaftshunoslik fanlari guruxida komponentlar tabiiy geografiyalari-tarmok fanlar ajratiladiki, ularning

xar biri geografiyani kobikning muayyam bir komponentini urganadi.Lekin bu komponentlar bir-biri bilan mukuv boglanishga ega ekanligini doimo nazarda tushush kerakki, utr tabiiy geografiyaning tarkibiy kismidagi ilm soxalaridir.

Geomorfologiya- yendogen va yegzogen jarayonlar natijasida tanlangan yer usti relyefini urganuvchi fan O.K.Leontev va G.I.Pirarollar «Yer yer usti relyefining paydo bulishi, tuzilishi, tarakkiyot tarixi va xozirgi dinamikasini urganuvchifan»- geomorfelogiyadir deb belgilashgan. Aslida geomorfologiya tabiiy geografiya va geologiya fanlari oraligida vujudga kelganligidan bu fanlar bilan yakin alokada ish kuradi. Gebrafin landshaftning yetakchi komponenti bulgan relyef tabiatning boshka komponentlari suv, iklim, shamol, muzlik kabi unsurlar ta'sirida vujudga kelganligidan tabiiy geografiya fanlar bilan boglangan. Joyning tektonik tuzilishi relyefga ta'sir etgani uchun geografiya fanlari bilan yakinlan alokada tabiiy geografiya bilan geografiya chegarasida revojlanganligi uchun -xozir geomorfologiya struntura gemorfologiyasi, iklimiy gemorfologiya dinamik gemorfologiya kabi yunalish va tarmoklar tarzida rivojlanmokda. Amaliy geomorfologiya- foydali (sochma) kazilma konlarini izlab topish, kurilish boshka inshoatlar uchun yegzogen jarayonlarni urganish masalasi bilan, dengiz gemorfologiyasi jengiz tubida foydali kazilmalarni kidirish masalalari bilan shugullanadi. Gemorfologiya uz amaliy faoliyatlarida kon kidiruvchi geologlar bilan, injener-gioliklar bilan, kartograflar, gidroliklar bilan xamkorlikda ish kuradilar.

Iklimshunoslik- G.Kning eng muxim komponent iklimning shakillanishkonuniyatlarni urganadi. Yer sharida yoki uning ayrim kisimlarida iklimlarning paydo bulish sabablari, iklim tiplari va ularning tarkalishi, iklimlarning xalk xujaligidagi axamiyatini iklimshunoslik urganadi. Iklim deganda muayyam joyning shu joyga xos bulgan va yildan yilga takrorlanib turadigan ob-xavo tiplari tushuniladi. Kuyosh radiatsyasi, yer yuzasi xolati va atmosfera xarorati xosilasi iklimdir.Iklim ob-xavodan fark kilib, barkaror buladi. Geografik kobikning yetakchi komponenti bulgan iklimni urganuvchi

Hozirgi geografiya, xususan zonalar haqidagi va landshaftlar haqidagi ta'limotning asoschisi V.V.Dokuchaev ishlari asosiy o'rin tutadi. Chunki u 1899 yilda yozgan unchalik katta-bo'lmagan «Tabiat zonalari haqidagi ta'limotgadir» asarida, shu vaqtga qadar tabiatning alohida jismlari bo'lgan holda o'rganildi, aslida bu 1845 yilda tashkil etilgan Rus geografiya jamiyati geografik tadqiqot va geografik tafakkur rivojlanishida muhim ahamiyatga ega T.P.Semenov-Tyanshanskiy, N.M.Prjevalskiy, F.P.Litks kabi zabardars sayohatchilar va olimlar yetishib chiqdilarki, ularning g'oyalari geografiyaning fan sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hozirgi zamon geografiyasi tabiat va iqtisodiy ijtimoiy fanlar tizimidan tashkil topgan kompleks fandirki, u geografik qobiqni bir butun tadqik etadi. 1818-20 yillarda F.F.Bellipsgauzen va M.P.Lazanevlarning boshchiligidagi «Marniy» va «Vostok» nomalarida qilingan ekspeditsiyasi Antarktida materigini kashf etdi. Bu muz bilan qoplangan materik planetamizning boshqa qismlariga qaydarajada ta'sir etishini ham geografiya o'rganadi. Geografiya Yer sayyorasi va uning qobiqlarini bir butun tuzilma yoki zanjir sifatida tizmiy yondashuvi fandir. Buni XIX asr oxirida rus olimi V.V.Dokuchaev asoslab bergan, A.A.Grigorev o'zining geografik qobiq haqidagi ta'limoti va M.I.Budika bilan hamkorlikda Yerning geografik zonalligining davriy qonunini miqdoriy jihatdan asoslab berish bilan geografiyaning xususan uning tabiat geografiya tarmog'ining predmeti va o'rganish obyektini aniq-tiniq belgilab berdi. V.B.Sochavaning geosistemalar haqidagi ishlari geografiya fanlarining hududiy komplekslar tabiiy-hududiy va hududiy asriy aloqalari, tirik tabiat bilan jonsiz tabiatning o'zaro munosabati tabiatni bilishning mohiyatini tashkil etadi deb yozadi. Bu bilan Dokuchaev hozirgi geografiyadagi asosiy g'oya-komponentlarning o'zaro ta'sir, o'zaro aloqada va bir-birini taqazo etgan holda mavjud bo'lib rivrjlanishini ta'kidlab

o'tgan. Garchi Dokuchaev o'z tadqiqotlarida «Landshaft» so'zini ishlatmagan bo'lsa-da «Komponentlarning muayyan hududdagi geologik davrlar mobaynida o'zaro ta'sir va aloqadagi uyg'unligi» bo'lgan tabiiy hududiy kompleks-landshaftni nazarda tutgan. U hatto shu asriy uyg'unlikda rivojlanishni qanday tabiat fani o'rganish kerak deb yozgan edi.

Hozirgi zamon tabiiy geografiyasida V.V.Dokuchaev, L.S.Berg, S.V.Kalesnik kabi akademiklar yaratgan zonalar haqidagi, landshaftlar haqida fikrlar ustun yo'nalishlardan biri, chunki tabiat zonasi-bu tabiiy hududiy kompleks, komponentlar taraqqiyotining rivojlanish mahsuli-landshaftlardir. Zonalar shakllanishining namlik va issiqlik nisbatiga bog'liqligi akademiklar A.A.Grigoev bilan M.A.Budiko hamkorligida ishlab chiqilgan. Eng katta va bir nusxada namoyon bo'lgan geografik qobiq haqidagi ta'limot ham A.A.Grigorev va uning shogirdlari tomonidan ishlanmoqda. Mashhur geoximik olim, qomusiy bilimli akademik ta'limotida organizmlar geografik qobiqning yetakchi komponenti bo'lganligidan barcha boshqa komponentlar rivojlanishiga tabiat komplekslarining xususiyatiga ta'sir ko'rsatishi jihatdan tabiiy geografiyada maxsus bir yo'nalishni tashkil etadi.

Nemis olimi A.Gumboldt boshlab bergan o'simliklar bilan iqlimning bog'liqligi hozirgi fikrlar rus o'rmonshunos geografi G.F.Morozov, A.N.Krasnovlarning amaliy faoliyati bilan rivojlantirildi. A.N.Krasnov Botumi Botanika bog'iga asos solib, o'simliklarni madaniylashtirish tabiiy muhitga bog'liq bo'lishi haqidagi qarashlari tabiiy geografiya amaliy yo'nalishi hisoblanadi.

N.I.Vavilov o'zining genetik sohasidagi ishlari bilan madaniy o'simliklarning kelib chiqish geografik markazlari haqida ta'limot yaratdi, bu bilan madaniy o'simliklarni o'stirish qulay muhitda serhosil bo'laolishini isbotladi.

A.I.Voeykovning iqlimshunoslik sohasidagi ishlarini B.P.Alisov iqlim mintaqalari haqidagi ishlari bilan davom ettirdi.

## *6 - mavzu: O'RTA OSIYOLIK ALLOMALARNING ASARLARIDA GEOGRAFIYANING RIVOJLANTIRISH. O'ZBYEK MILLIY GEOGRAFIYASINING ZAMONAVIY ASOSLARI*

**REJA**

1. Muxammad muso al-xorazmiy –shark geografiyasining asoschisi.
2. Jayxoniy, narshaxiy asarlarida va " xudud al-olam da geografik talkin
3. Abu rayxon beruniyning geografik merossi
4. Maxmud kashkariyning devonu lugatit turk asarida geografiya
5. Temuriylar davrida geografiyani rivojlanishi.
6. Boburnoma –milliy geografini shox asari.
7. Yangi davrdaa maxalliy olimlarninggeografik ishlari.
8. Istiklol va geografiya.

Urta Osiyo–er yuzinig kadimiy siyosiy, iktisodiy va madaniy markazlaridan biri. Urta osiyoda tugilib voyaga yetgan, shu zaminda ijod kilgan olimlar, shu yerda tavallud topgan arab dunyosining ilmiy markazlarida shark ilmida yetakchi urinni egallagan mutaffakirning butun dunyo ilmi axli biladi. Bu olimlarni asarlari asosan shu davrning ilm tillari arabchada va forsiyda yozilgan, shu sababli yevropada ularni kupincha olimi sifatida biladilar. Aslida ular shu zaminning yerli xalklari- turkiylar uzbeklar, tojiklar, karakalpoklar farzandi. Shu sababli ularning kupchiligi urta osiyo xalklarining umumiy farzaandi, demak urta osiyodaxar bir xalk bu olimlar bilaan faxrlansa arziydi. Utmish allomalarining ilmiy mero merosini, avvalo geografik merosini, avvalo geografik ierosini kuyozma manbalardan, sharkshunos olimlarning ilmiy sharklaridan, arabiy va forsiy kitoblardan tuplab, bizga bir tizim sifatida takdim etgan merosimizning tolmas tadkikotchisi, komusiy bilimi donishmand olim Xamidullox Xasanovdan avlodlar minnatdor bulishlari lozim. Rus

sharkshunoslari V. V, Bartald, I. Yu. Krachkoviskiy, S.P.Tolstov, uzbek olimlari T. N. Koriniyoziy, Ya. Gulomov, B.Axmedov, P.B.Bulgakov, A. Urinboev, I. Muminov, P. Shamshiev va boshkalarning urta osiyolik allomalarning ilmiy merosi bilan tanishtirishda xizmatlari bekiyosdir.

Shark fani tarixida muxum urin tutgan Xorazmda tugilib usib, arab xalifaligining poytaxti Bogdodda ijod kilgan Muxammad Muso al-Muxammad Muso-al- Xorazimiydir. Amerikalik atokli shark shunos olim D. Sart D. Sarton barcha zamonlarning eng ulug matimatiklaridan biri " deb yozganida ming marta xak edi. Chunki arifmetika, algebra, algoritm tushunchalari uning nomi bilan boglik." Aljabr va Mukobila" asari uning nomidan algebra kelib chikkan, Algoritm Al- Xorozimiy nomining lotincha shakli Al-Xorazimiy xalifa Xarup – ar Rashidning ugli ma'mun davrida ijodi yukori darajada kutarilgan. 813-33 yillarda xukmronlik kilgan xalifa ma'mun davrida Bogdodda "Bait al- xakma" "Donishmandlar uyi". Xozirgi tilda fanlar akademiyasi tashkil etildii. Xorazimiy boshchiligidagi bu dargoxda Suriya, Yunon, Paxloviy, Sonskrit tillardagi asarlar arab tiliga tarjima kilinadi. Xalife akademiyaga osmoning va jaxonning batafsil xaritalarini tuzushni topshiradi. Bu tuzulma "Jaxon xaritalari" aslida dunyo atlashi bulishi kerak. Xarita tuzish bilan 70 tacha olim shugullangan. Bu olimlar ichida, Axmaad al-Fargoniy, Abbos bin Said Javxoriy, Axmad bin Abdulla Maarvvaziy kabi urta osiyolik olimlar xam bulgaan. Bu xaritaalar yigindisi " Ma'mun dunyo xaritalari" deb yuritiladii. Taxminan 840 yillarda tugallangan bu xaritalarga Xorazimiy tomonidan yozilgan shark-izoxat Kitobi surat al –arz "Xorazimiy geografiyasi" deb yuritiladi. Kitobning ikkinchi nomi "Yerning surati", "ma'muralarning surati" xam deb nomlanadi.Xozirgacha kitobning bitta kulyozmmaasi va 4 ta xarittasi Koxirada topilgan kitobda izoxlar asosan jadval tarzida, dunyoning turrayonlarida iklimlar buyicha joylashtirilgan obntlarning kordinatalari berilgan. Jami 537 joyning nomi garbdan sharkka karab ketma-ket yozilgan avvalo shaxarla, sungra toglar, dengizlar va orollarning nomlari eng oxirida daryolar aloxida –aloxida yozilgan. Xorazmiyning "Surat al-Arz"

asarini K.Fitolomiyning "Geografiyadan qo'llanma" asarining arab tiliga tarjimasi deb hisoblovchi tadqiqotchilar ham dor. Aslida Fitolomiy geografiyasini Eronlik Ubaydullo Xurdodbek arab tiliga tarjima qilgan. Ptolomiy asari asosan matn- takstdan iborat, "Sur'at" esa hij-jadval tarzida yozilgan. Ptolomiy Yer yuzining odamlar yashaydigan choragini 94 eparxiyaga 21 zonaga bo'lgan, Xorazmiy esa yerni yetti iqlimga bo'lib har bir iqlimni alohida-alohida izohlagan. Dervoqe, sharq geografiyasining antik davr geografiyasidan farqi ham "Yetti iqlim " , "Ma'mura" kabi tayanch tushunchalarni fanga kirganligidir. To'g'ri, Xorazmiy o'zidan oldin o'tgan olimlardan o'rgangan Yunon olimlarining ta'siri katta bo'lgan; ammo Xorazmiyning uzoq Ispaniyadan Qashqargacha bo'lgan barcha tabiatshunos, geograf, sayohatchilariga ilhom berishi, bundan keyin o'tgan olimlar Xorazmiy asarlariga tayanishi uni sharq geografiyasining asoschisi deyishga asos bo'ladi. Zero X asrning birinchi yarmida yashagan Iroq olimi Suxrob – ibn Serapeon "Sur'at al-Raz" ni tahrir etib, "yetti iqlim kitobi" nomi bilan chop ettirgan. XI asrda Ispaniyada yashagan az- Zarqaliy tuzgan "Hudud al-Olam" da quruqliklarning chegaralari dengiz va qo'ltiqlar, orollar, tog'lar va ularning bag'ridagi ma'danlar, daryolar, cho'llar va qumlar, so'ngra jahondagi viloyatlarning ta'rifi berilgan. Bu asar jahondagi o'sha vaqtdagi ma'lum barcha mamlakatlarning ta'rifi bilan berilgan. Geografik , etnografik va iqtisodiy ma'lumotnomadir. Tojikiston O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmanistan va Arabiston yerlari mukammal ta'riflangan. "Ekvator bir aylanadirki, u yerning sharqiy chekkasidan boshlanib butun o'rtasidan o'tadi va g'arbgacha boradi, so'ngra yana sharqqa tamon " yo'naladi. "Yer yumaloqdir, uni osmon muhiti o'rab turadi". Ikki qutbi bor, birini shimoliy, boshqasini janubiy qutb deydilar deb yozilgan. Asarda har bir terminga, tushunchaga izoh berishga harakat qilingan.

"Kesh – Issiq mintaqaning shaharlaridan biri" . u yerda yog'ingarchilik ko'p bo'ladi. Shahar darvozalari yonidan oqib o'tadigan ikki daryo sug'orishga

sarf bo'ladi. Tog'larda dori toshlar topilgan" deb ko'pincha shaharlarga, geografik ta'rif berilgan. Hulosa qilib, shuni aytish lozimki, "Hudud al-Olam" ning muallifi O'rta osiyo va unga tutash maydonlarning geografik qiyofasini aniq tasavvur etgan , geografik terminni va atamalarning ma'nosini chuqur izohlagan olim kishi bo'lgan.

Beruniy chinakkam ensiklopedik olim, uning sakkista asari bevosita geografiyaga tegishli. "Azori voqea", "Geodeziya", "Kortagrafiya", "Hindiston", "At-taxvim", "Qonuniy masudiy" , "Miniralogiya" va "Saydona" asarlarida geografiya faning tub masalari yoritib berilgan. Beruniyning Yerning geologik tarixi, yer yuzasining qiyofasi, yetti iqlim va mamuralar haqidagi tushunchalar ta'limoti, dunyo xaritasining "At - Taxvim" ga ilova qilinishi dastlab globus yasagan olim ekanligi, g'arbiy qitani bashorat qilganligi, O'rta Osiyo va Xurosonning geografik ta'rifi kabi masalalar haqidagi nazariy va amaliy fikrlari diqqatga loyiqdir. Asli Xorazmning Kot shahri chekkasida tug'ulgan, Urganch, Jurjonc, va G'aznida ijod qilgan bu olimning ilmiy merosi fanning barcha sohalariga taalluqli. O'z asarlarini arab tilida, qisman fors tilida yozgan bo'lsa-da , o'zining till ona tili emasligini o'z asarida qayd etgan. Kolumbdan V asr oldin g'arbda inson yashashi mumkin bo'lgan quruqlik borligini ilmiy jihatdan asoslab berganligi uni chuqur nazariyotchi olim bo'lganligini ko'rsatadi. "Hindiston " asarida "Yerning choragi Ma'muradir. Ma'murani g'arb va sharq tamondan muhit okeani Atlantika va Tinch okeanlari o'rab turibdi, u muhit yerning obot qismini dengizlarning nargi tamonida bo'lishi mumkin bo'lgan quruqlik yoki odam yashaydigan orolardan ikkala yoqdan g'arbdan-sharqdan ajratib turadi"… u tamonda havo noqulay yo'llar notinch, xavf-xatar ko'p borgan kishilar qaytib kelmaydi. Shuning uchun quruqlikka tamon yurilmaydi… bizning tekshirishimizcha yerning shimoliy choragidan bir quruqlik bo'lganidan, "Teledo jadvallari" ning katta qismi Xorazmiyddan olingan. Ulug' Beruniy Xorazmiydan ikki asr keyin yashab ulug' vatandoshi asarlaridan

foydalangan. Italya sharqshunosi K.Nallipo Xorazmiyga “Evropadagi hech bir xalq Xorazmiy erishgan yutuqqa erishishga va bunday asar yaratishga qodir emas edi” deb yuksak baxo beradi. Mustaqillik zamoning geograflar bo’lgan biz uning vatandoshlari. Shunday zabardast ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz. Uning ijodiy merosini buyuk qadryat sifatida e’zozlaymiz.

X asrda Samoniylar poytaxti Boxoroda bosh vazir lavozimida xizmat qilgan ibn Nasr Jayhoniy fanimiz tarixida chuqur iz qoldirgan siymodir. Taxminan 870 yilda tug’ulib, 942 yilda vafot etgan. Bu davlat arbobi o’z lavozimidan ilm-fan manfaati yo’lida foydalangan. Abu Zayd Balxiy, Abu Dulaf ibn Fadlon kabi olim, shoir sayyohlar xomiylik qilgan. O’z faoliyati davomida elchilik savdogarlik, sayyohlarning suhbatlarini, o’z mamlakatlar haqida ma’lumotlarni tinglab, tahlil etib “Masofalar va mamlakatlar” nomli kitob yozgan. Bu asar hozirgacha topilmagan bo’lsada X-XII asrlar juda mashhur bo’lgan. Beruniyning “Osori Boxya” asarida bu kitobning nomi tilga olinim , undan foydalanganligi ko’rsatilgan, “Hudud olam” muallifi nomalum asarda bu kitobdan foydalanilganligi qayd etilgan. Muqaddasiy ma’sudiy va boshqa olimlar ham Jayhoniyning har tamonlama bilimli kishi bo’lganligina uning kitoblaridan foydalanganligi haqida yozib qoldirilgan. “Masofalar va mamlakatlar” Markaziy va O’rta Osiyo, Hind vodiysi, Turk qabilalari, uzoq sharq to’g’risida chinakkam geografik ma’lumotlar bo’lgan. O’zidan keyingi geografik adabiyotga juda katta ta’sir ko’rsatgan.

Abu Bakir Muhammad ibn Jafar Narshaxiy (1899-959) Buxoroda yashab ijod qilgan tarixchi olim. Uning Arab tilida “Taxqiqat al-viloyat” - “Buxoro tarixi” asari mahalliy olim tomonidan o’z o’lkasi tarixi va geografiyasini tasvirlagana asar bo’lishi bilan ahamyatlidir. Asar 1129-1179 yillarda tojik tiliga tarjima qilinib, asar yozilgan keyingi voqealar ham kiritilgan. Asarda Bbuxoro atrofidagi yerlarning geografik holati nomlari Movaraunnaxrning izohati, Shafrikan nomi kelib chiqishi, Afshona

Karmina, Tavovis, Poykent kabi geografik obektlarning tarixiy va geografik holati haqida ma'lumotlar tarixiy geografiya uchun ahamiyatlidir.

Muallifi hozirgacha nomalum bo'lgan "Hudud al-olam" Amudaryoning chap sohilida Juzjon shahrida, shu viloyat hokimi Abul Voris Muhammad ibn Ahmadga bag'ishlangan fors-tojik tilida 983 yilda bitilgan asar. Sharq geografiyasining durdona asarlaridan biri bo'lgan bu kitob yozilganidan 300 yil o'tgach qayta ko'chirilgan. O'rta Osiyo va Afg'onistonda geografik bilimlar tarixi uchun qimmatli manba hisoblanadi. 60 betdan iborat geoekologiya aniq maydonlarning tabiiy muhitiga inson faoliyati ta'siri darajasining tadqiq etgani uchun geografik fandir. Inson uchun ekologik sharoitning qay darajada ekanligi, uni qulaylashtirish masalalari bilan shug'ullangani uchun ijtimoiy - iqtisodiy fan hisoblanadi.

Shu bois geoekologiya orqali fandan ko'ra tabiat va jamiat fanlariga yaqin turadi.

Tabiiy resurslar geografiyasi xo'jalikni rivojlantirishda resurslarning tarqalishi haqidagi masalalarni tadqiq etuvchi ilm soxasi. U geoekologiya, iqtisodiy geografiya, tabiiy geografiya fanlari bilan bog'liq. Chunki moddiy va manaviy boyliklar bo'lgan tabiiy vositalardan foydalanishda tabiiy sharoit o'zgaradi, yerning meliorativ holati buziladi – bu geoekologik masala iqtisodni rivojlantirishda resurslar miqdori o'zgaradi, ulardan oqilona foydalanish masalalari kelib chiqadi, bu iqtisodiy geografik masala. Resurslardan birining miqdori o'zgarishi bu landshaft kompleksida o'zgarishni vujudga keltiradi – bu tabiiy geografik masala. Demak resursshunoslik tabiiy ilmiy - ijtimoiy – iqtisodiy geografik fandir.

Tarixiy geografiya – tarixiy davrlargadi jamiyat bilan atrof muhitning o'zro munosabatlarini o'rganadigan fan. Dunyoning hozirgi siyosiy – iqtisodiy – tabiiy manzarasi – holati uzoq tarixiy taraqqiyot natijasidir. Hozirgi zamon geografiyasi, iqtisodiy tarixi, etnografiyasi fanlari bilan yaqin aloqada bo'lgan, tarixiy geografiya - dunyoning tarixiy o'zgarishlari

jarayonida qanday ekologik sharoit vujudga kelganligini izohlab beradigan masalalar bilan shug'ullanadi.

Medisina geografiyasi - Yer sharining va uning ayrim regionlarida tabiiy muhitning, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning inson salomatligiga ta'sir etishini o'rganadigan fandir. Inson ekologiyasi, medisina va geografiya fanlari o'rtasida vujudga kelgan bo'lib, turli xastaliklar tarqalishi, insonning muhitga moslashuvi, inson salomatligi tabiiy sharoitga bog'liq ekanligini asoslash bu fan vazifasi hisoblanadi. Medisina geografiyasi bilan rekrasiya geografiyasiga bog'liq bo'lib, insonlarning bo'sh vaqtl;arida, uning jismoniy va ma'naviy - ruhiy kuchlarini tiklash jarayonlariga tabiiy sharoit ta'sirining geografik tomonlarini tahlil etadi. Aniqrog'i muayyan sharoitning inson yashashi va dam olishiga qay darajada qulay yoki noqulayligini tadqiq etadi.

Okeanlar geografiyasi ham bu bo'lim fanlaridan bo'lib, okeanlar muhitining tabiiy tarixiy sharoitda vujudga kelgan qonuniyatlari okeanlardan foydalanishda qay darajaga o'zgarish masalalarini o'rganadi. Shuningdek, okeanlar gegrafiyasi okeanlar tabiiy sharoitidan oqilona foydalanish masalari bilan ham shug'ullanadi.

Muayyan joyning va iqtisodiy holatini tadqiq etuvchi gegrafiya fani hozirgi vaqtdagi tabiatdan oqilona foydalanish inson faoliyati natijasida tabiatdagi o'zgarishlar va ularning oldini olish bu o'zgarishlarni bashoratlash loyihalash masalalarini tatqiq etar ekan.

Bu hayotiy muammolar tabiat bilan aniq geografik maydon bilan inson xo'jalik va yashash faoliyati bilan bog'liq bo'lganidan geografik mazmunga ega. Tabiiy va iqtisodiy fanlarning yaxlit tizimi bo'lgan geografiya o'rganadi.

4. Oraliq geografiya fanlar bo'linmasi. Bu bo'linmaga tatqiqot ta'riflash usullari metod va konsepsiyalar barcha geografiya fanlari bilan kirishib - chatishib ketgan bir qator ilm sohalari kiradi. Geografiya

fanlari tizimidagi barcha fanlarga u yoki bu darajadi tasvirlash, ma’lumot olish yo’llari yaqin va ko’p hollarda bog’lanib ketganligiday “Oraliq yoki ko’prik” fanlarining yuqorida ta’rifi bayon etilgan tabiiy – ilmiy, ijtimoiy – iqtisodiy hamda tabiat jamiyat fanlari bo’linmalarining hech biriga kiritish maqbul bo’lmaydi, alohida bo’linma sifatida tasvirlash maqsadiga muofiqdir.

Kortografiya – geografik xaritalar xarita tuzish va undan foydalanish to’g’risidagi ilmlar bo’lgani uchun uni tabiiy geografiyaga ham ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaga ham kiritsa bo’ladi. Shu bilan birga kortografiyani matematika fanining amaliy soxasi sifatida ham ta’riflash mumkin. Aslida geografiyaning alohida matematik geografik sohasi deb qarash mumkin bo’lgan kortografiya geografiya fanlari tizimidagi barcha fanlar uchun – nafaqat geografiya fanlari uchun- beqiyos ahamiyatga ega. Kortografiyaning asosiy maqsadi – yer planetasi yuzasidagi butun geografik borliqni kortografik vositalar yordamida aniq tasvirlashdan iborat. Yer yuzasidagi geografik vaqeylikdan boshqa yulduzlar olamini yer po’stining ichki tektonik strukturalarini Kortografik vositalar bilan chizmada aks ettirish ham kortografiya ilmining vazifasiga kiradi. Demak, geografik xaritalar bilan birga globus orqali Yer planetasining shakl-shamoilini yaratish, yer yuzasi qiyofasini buyurtma holda aks ettiradigan relf xaritalari tuzish, blok - diagrammalar (muayyan geografik obekt joylashgan maydonni msshtab asosida butun bo’yi - basti bilan ko’rsatuvchi chizma) kabi sohalar ham kartografik ishlar doirasiga kiradi. Xaritalar tuzishning hamma bosqichlarida murakkab texnik jihozlar talab etiladiki, xaritalarni yaratish bilan bir necha yo’nalishdagi kortografiya fanlari shug’ullanadi.

Xaritashunosli (Kartoverdenie) - xaritalar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari bilan shug’ullansa, matematik kartografiya Yer yuzining tekislikda aks ettirish usullari masshtablarini qo’llash daraja to’ri xaritalarda uzunlik va maydonlarni hisoblash usullarini o’rganadi. Kartografiya geografiya,

metematika va texnika fanlari oralig'ida vujudga kelgan. Kartada tasvirlanish lozim bo'lgan geografik obektlarni aniqlash geografiya fanlarining manfaatiga tegishli. Bunday narsalar jumlasiga tabiiy hududiy, hududiy ishlab chiqarish komplekslari kiradi. Xaritalar ishlab chiqarishda elektron hisoblash mashinalaridan foydalanish asa matematik saxadir.

Xaritalarning proeksiyalari Yerning o'lchami va qiyofasini (figurasini) tekis yuzada tog'ri ifodalash uchun tanlash – geodeziya faning funksiyasi bo'lishi mumkin. Xullas kortografiya fani geografiya, geometriya, geodeziya, texnika kabi fanlarning ko'pchiligiga bab-barovar tegishli fan hisoblanadi. Ayni choqda astronomiya geolog, arxeolog, tarixchi, etnograf, biolog va boshqa soxa tatqiqotchilari ham kartografiya fani yutuqlaridan manfaatdordir. Shuningdek qurilish, qishloq xo'jaligi, tarnsport, madaniyat, ma'naviyat, tabiatni muhofaza qilish ishlarida xaritalar zaruriy vosita sifatida ishlatiladi. Demak, xaritalar – ilmiy, amaliy va ma'rifiy sohalarda keng qo'llaniladigan muhim vositadir.

Geografiya fanlar tarixi – geografik tafakkur Yer planetasidagi geografik kashfiyotlar haqidagi ham tarixiy ham geografik fandir. Tarixiy davrlardagi davlat, aholi va boshqa ijtimoiy obektlarning joylanishini o'rganadigan tarixiy geografiyadan farq qilib, geografiya ilmi tarixi, yer haqidagi fanning revojlanish tarixini o'rganadi. Darvoqe, geografiya fanlari tarixi falsafa, texnika tarixi, geografiya fanlarining turli sohalari bilan chambarchas bog'liqdir. Tarixiy geografiya bir – biri bilan chuqur bog'lanishli ikki qismdan tashkil topgan.

I. Geografik sayohatlar va kashfiyotlar tarixi va 2. Geografik ta'limot va g'oyalar tarixi. Keyingisi hozirgi zamon geografiya fanlari tizimining shakllanish tarixini tashkil etadi. Bu fan qadimiy qo'lyozma , xaritalar, sayohat kundaliklari kabi tarixiy ashyoviy manbalarga siyangan holda ish ko'radi.

Oraliq geografiya fanlari bo'linmasiga toponomika fanini ham kiritish mumkin. (Yunoncha topos – joy, onima - nom) – tonimlarni - geografik nomlarni o'rganadigan bu fan - geografiya, tilshunoslik, tarix, iqtisod fanlari o'rtasida vujudga kelgan. Toponomika - muayyan tildagi nomlarni to'plash , ularning rivojlanishi, o'zgarishining sababiy yo'nalishini areallarini yoritish toponomik lug'atlar tuzush, joy nomlari transkriptsiyasi, imlosi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Bular geografik fiziologik, tarixiy fanlar tadqiq etuvchi masalalar hisoblanadi.

## *7 - mavzu. UMUMIY YER BILIMINING TADQIQOT USULLARI*

## REJA

1. Tadqiqot metodlarini tasniflash masalalari umumilmiy va umumgeografik metodlar.
2. Umumiy yer bilimi-tabiiy geografiyaning fanlararo matematik metodlar geokimyoviy metod, geofizik metod modellashtirish metodlar.
3. Qiyosiy, o’xshatish tarixiy va tizimli metodlar.
4. Dala-ekspidettsiya metodi labaratoriya hamda kartografik metod.

Tayanch tushuncha va iboralar-metod, usul, ob‘ekt, predmet, vazifa tushunchalari modellashtirish geosistema-geotizim, geokimyoviy va geofizik metod. Tarixiy-paleogeografik metod. Sayohat-ekspedittsiya. Tabiiy geografik statsionar. Aerokosmik metod. Balans metodi. Umumiy yer bilimi-geografik qobiqni dinamik sistema-tizim sifatida qarab, uning strukturasi hamda hududiy tabaqalanishi-masalalarini o’rganadi. Yer planetasining asosiy, eng yetakchi geografik qonuniyatlarini o’rganadigan fan deyish mumkin. Umumiy Yer bilimini tabiiy geografiyaga kirish fani deb qaramaslik kerak, chunki u geografiya fanlarining asosini-fundamental fanlarini tashkil etadi. Aslini olganda umumiy yer bilimining geografik dunayoga metodologik kirib borishi bilan bog’liq fan deb qarasak bo’ladi. Chunki geografik qobiq haqidagi ta‘limot shunday kuzgudurki, o’rganadigan predmet, hodisa jarayonlar va butun ilm sohalarining geografiyaga tegishli ekanligi ko’rinib turadi. Masalan atmosferani geofizika fani bo’lgan meteorologiya fani, ammo atmosferaning quyi qismi-traposfera yer iqlimi shakllanadigan makon bo’lganidan geografiyaning tarmoq fani bo’lgan iqlimshunoslik fani o’rgandi. Shunga ko’ra, geografik qobiq yaxlit denamik sistema sifatida uning tamoyil va o’rganish metodlari o’lkashunoslik bilan tarmoq fanlariga tegishli printsip va metodlar bilan bog’lanib ketadi.

Geografiya tasnifiy pog'onalar bo'yicha ish ko'rishi lozim. Bunday tasnifiy pog'onachalarga-tsikl, onli, avlod va turni ko'rsatish mumkin. Yer xaqidagi fanlar tsikliga geografiya bilan birga-biologiya, geologiya, geofizika, geokimyo kiradi, chunki bularning barchasining o'rganish obyekti bita yer hisoblanadi. Geografiya fanlari oilasiga tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya, o'lkashunoslik, kartografiya, geografiya fanlari tarixi va metologiyasi fanlari kiradi. Tabiiy geografiya bilan iqtisodiy geografiyaning birlashuvi-yaxlitligi mamlakatshunoslikda o'z aksini topadiki bunda tabiat-aholi-jamiyat kabi uchlik qirrani tadqiq etish kerak.

Tabiiy geografiya fanlari turkumi-umumiy yer bilimi landshaftshunoslik, mamlakatshunoslik, palogeografiya va xususiy tarmoq fanlaridan tashkil topgan. Umumiy yer bilimi-tabiiy geografiya, landshaftshunoslik fanlari bilan bir turni tashkil etadi. Geografiya fanlarining metodlarini tasniflashda K.K. Markov, O.P. Dobrodeev va boshqa olimlar ish olib borganlar, umuman olganda tabiiy geografiya fanlarining metodlarini uch guruhga bo'lish mumkin-umumkimyoviy metodlar fanlararo metodlar va geografiyaning o'z metodlari eng muhim umumkimyoviy metod-materiallistik-dilektika-narsa va hodisalarning o'zaro bog'liq ravishda doimiy rivojlanishdagi moddiy Dune birlik va qarama-qarshilik, miqdor o'zgarishlaridagi sifat o'zgarishlariga o'tish va inkorni inkor qonuni asosida mavjud bo'lishi. Tarixiylik shu dialektik metoddan kelib chiqib, narsa va hodisalar uzoq tarixiy davriy natijasi. Buni paleogeografiya metodi deyiladi. Umumilmiylik metodi tizimli yondashuv metodi ifodalanid. Har o'rganilayotgan oddiy (hodisa, jarayon, kompleks) turli qism-bloklardan iborat juda murakkab tuzilma sifatidan o'rganiladi. Tizimli yondashuv metodi-ob'ektni kichik mayda qismlarning birikmasidan tashkil topgan. Yaxlit ko'p qirrali ichki va tashqi o'zaro aloqadagi material tuzilma deb qarash demakdir. Juda mayda struktura qismlaridan iborat ichki va tashqi aloqadagi kattaroq strukturaga birikkan ko'p qirrali yaxlit tizim deb qarash-tizimli metodning mohiyatini tashkil etadi.

Fonlaroro metodlar-bir gruh fonlar uchun umumiy bo'lgan metodlardir. Tabiiy geografiyada matematik, geokimyoviy, geofizik, modalashtirish va madellashtirish metodlari bo'lib bulardan matematik va modellashtirish kupchilik ilimlarda qullaniladigan usullar. Matematik metodlar-tabbiy va aniq fanlarda keng qo'llaniladigan bu metodlardir.O'rganilayotgan ob'ektning juda murakkabligi bois, tabiiy geografiyada nisbatan sekinlik bilan qullanilmoqda, matimatik metodning qo'llanilishi asosan londshad komplekslarini o'rganishda matematik statistika va ehtimolini nazariyasi metodlari bilan chegaralanib qolmoqda. Amerika geografii V. Bungening fikriga ko'ra, geografik qonun va qonuniyatlarni matematik mazmun va maklda obstraktsiyalash-tafakkur qilib ifodalash orqali tadqiqotlar olib borish geografik tadqiqotning andozasi bo'lmog'i zarur. Madomiki, geografiya aniq predmetni tafakkur qiladigan fan bo'lgan va bo'lib kelayotganidan bu fikrni tug'ri deya olmaylik,chunki real mavjud bo'lgan jismlarni matematik belgilar simvollarda ifodalashga utib bulmaydi. Matematik metodning foydasi tabiiy geografiya uchun beqiyos ammo u asosiy tadqiqot metoti emas, geografik qonun va tushunchalarning mohiyatini ochishda yordamchi metod bo'lib, qolaveradi. Geokimyoviy metod-tabiiy geografiyada atoqli tuproqshunos va geografik B. B. Pomenov ishlari asosida landshaftshunoslik keng qullaniladigan bo'ldi. 1956 yilda ma'lumotlarni bir-biriga solishtirib va qushib tahlil etish metotini taklif etdi. Relyefning balandliklardagi landshaft komplekslari tarkibida past joylarga utganda kimyoviy elementlarning miqdori va kuchishi o'zgaradi deb qarash bu metodning mohiyatini tashkil etadi. Balandliklar bilan past joylarda kimyoviy elementlar miqdori va kuchib yurishi xarakterini shu tariqa aniqlash mumkin. Shu maqsadda olim elementlar landshaftlarni uchta tinga bo'ladi. Ellyuvial, superakval va suakval landshaftlar.

Ellyuvial yoki avtonom (elio-lotincha yuvish) yer osti suvlari juda chuqurda joylashgan balandliklardagi landshaftlar bo'lib, ularda elementlar suv va yonbag'irlarning pastki tomon siljishi natijasida olib ketiladi. Balandliklardagi

bunday landshaftlarda ularning tarkibidagi kimyoviy element birikmalari landshaftning zaminidagi tog' jinslari va atmosferadan kelishidan to'planadi.

Superakval-yoki suv usti landshaftlari (super-usti atsia-suv)-past joylardagi landshaftlar bo'lib yuzaga yaqin joylashgan yer osti suvlaridagi va tashqaridan suv osti jinslari hamda, suv ayirg'ichlardan yuvilib kelgan elementlarning birgalikda to'planishidan hosil bo'ladi.

Subakval-suv osti landshaftlari ayirg'ichlardan harakatchan elementlarning yuvilib kelishi va yer osti suvlari yuzaga chiqargan juda harakatchan eelementlarning to'planishi natijasida hosil bo'ladi. Bu uchala tipdagi landshaftlar tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdorini havodan olingan, suvlari tarkibidan, tuproq, o'simlik tarkibini tahlil qilib, solishtirish natijasida kimyoviy elementlar ma'lumotlar balandlikdagi landshaftlar botiqlarga tomon ko'chgan sababli ularning kompleksida bir kimyoviy element shu sababli landshaft kompleksining do'stliklaridagi ayrim kimyoviy elementlarning kam bo'lishi, pastlardagi qismida ko'p bo'lishi, kimyoviy elementlarning migratsiyasi haqida ma'lumot beradi. Ellyuvial superakval va subakval landshaftlarda, kimyoviy elementlar miqdorining takroriy tahlillarda qaytarilishi-ulardan qishloq xo'jalik yuritishda muayyan choralar ko'rishni talab etadi. Ma'lum kimyoviy element yetishmaganda bunday joylarda kimyoviy melioratsiya choralari-o'g'itlash, sho'r yuvish choralarini ko'rishni taqoza etadi. Shu bilan birga landshaft komplekslarimiz antropogen ta'sirdan-sanoat, transport, dalalarda kimyoviy vositalarni qo'llash natijasida ma'lumot olish imkoniyati geokimyoviy metod yordamida aniqlanadi. Avvalgi tahlilda muayyan joydagi aniq bir kimyoviy element miqdori me'yorida bo'lsa, bir necha muddat o'tgandan keyin qilingan tahlilda o'zgargan bo'lsa, shu landshaft kompleksini ifloslanish darajasini ko'rsatadi. Demak, landshaftlarni o'rganishning geokimyoviy metodi-antropogen ta'sirning darajasi haqida ma'lumot olishgan yordam beradi.

Geofizik metod-landshaftlarni fizik usullardan foydalanib o'rganish demakdir. Modda va energiya almashinuvi jarayonida landshaft yaxlit bir butun kompleks

deb qarash Ushbu metodning mohiyatini tashkil etadi. Hozirgi zamon murakkab fizika asboblari yordamida yer yuzasining radiatsiya va modellashtirish metodi akademik A.A. Grigorev, V.S. Preobrajenskiy, T.D. Aleksandrova, T.P. Kupriyakovalar tomonidan qo'llanilgan. Ammo landshaft komplekslarining hozircha xammaga ma'kul varianti ishlab chiqilmagan.

F.N. Milakov landshaft kompleksining besh o'lchamli paradinamik sistema sifatidagi modellini ishlab chiqqan. Bir yoki bir necha komponentlar ta'sirining yetakchi omil sifatida rolida namoyon bo'lgan mayda darajali tabaqa komponent va kompolekslar bir-biriga bog'liq o'z-o'zini boshqaruvchi besh o'lchamli tabiiy hududiy komplekslni landshaftlarning funktsional landshafti deb qabul qilish mumkin.

Tabiiy geografiyaning maxsus metodlari jumlasiga qiyosiy tasvirlash, ekspeditsiya, adabiy-kartografik, aerokosmik, paleogeografik, balanslar kabi geografik tasvirning o'ziga xosligini aniq ko'rsatadigan metodlar kiradi. Qiyosiy tasvirlash metodi  eng qadimiy hanuz eng asosiy tadqiqot metodi-eng qadimiy, hanuz eng asosiy tadqiqot metodi sifat barcha geografiya fanlariga tegishli metod bo'lib qoladi.

A. Gumboldt asoslagan bu metod har bir ob'ektning tabiiy xususiyatini, har qanday geografik jarayon va hodisaning topish jihati orqali notanish qirralarini ochish imkoniyatini beradi. Geografiya fanlarining barcha tarmoqlarida turli izochiziqlar-izogips, izoterma, izobata, izobar, izogieta, izofek va boshqalardan foydalanish orqali balandlik, harorat, chuqurlik, bosim, yog'in, meteohodisalarning ro'y berish vaqtlari solishtiriladi, natija joy tabiiy sharoitining muayyan qirralari namoyon bo'ladi. Predmetlar kattaligi, daryoning sersuvligi, iqlimning quruqligi, o'rmon qalinligi, biotsenoz mahsuldorligi va boshqalarning bir joydagidan boshqasining farq qilishi bu metod orqali namoyon bo'ladi.